

**O‘ZBEK- HIND MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHGA
KO‘TARILISHI: HAMKORLIK ISTIQBOLLARI****ПОДЪЕМ УЗБЕКСКО-ИНДИЙСКИХ ОТНОШЕНИЙ НА НОВЫЙ
УРОВЕНЬ: ПЕРСПЕКТИВЫ СОТРУДНИЧЕСТВА****RAISE OF UZBEK-INDIAN RELATIONS TO A NEW LEVEL: PROSPECTS
OF COOPERATION***Asadova Ra'no Baymanovna**Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti, t.f.n**Асадова Рано Баймановна**доцент Университета экономики и педагогики, к.и.н.**Rano Baimanovna Asadova**associate professor of the University of Economics and Pedagogy, Ph.D*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Hindiston va O‘zbekiston davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning yuzaga kelishi, rivojlanishi va mazkur jarayondagi muammoli holatlar ilmiy manbalar asosida tarixiy tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Mustaqil O‘zbekiston, Hindiston, xalqaro hamkorlik, xalqaro bitim, qo‘lma kelishuv.

Абстрактный. В данной статье на основе научных источников анализируются возникновение и развитие взаимного сотрудничества между странами Индии и Узбекистана и проблемные ситуации в этом процессе.

Ключевые слова: Независимый Узбекистан, Индия, международное сотрудничество, международный договор, совместное соглашение.

Abstract. In this article, the emergence and development of mutual cooperation between the countries of India and Uzbekistan and the problematic situations in this process are analyzed based on scientific sources.

Key words: Independent Uzbekistan, India, international cooperation, international agreement, joint agreement.

Bugungi kunda to‘liq ishonch bilan qayd etish mumkinki, O‘zbekistonning Hindiston bilan davlatlararo munosabatlari va har tomonlama hamkorligining kelajagi porloq. Bunday xulosaga O‘zbekiston Respublikasining Osiyodagi Hindiston, Xitoy va Yaponiya kabi yetakchi davlatlar bilan keng ko‘lamli aloqalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ustuvor intilishi asos bo‘ladi.

Jahondagi davlatlar bilan ikki tomonlama hamkorlikni o‘rnatish va rivojlantirish O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining tarkibiy qismidir. Bu esa nafaqat teng

huquqli asosda davlatlararo munosabatlarni o'rnatishga, ayni paytda xalqlar o'rtasida do'stlik, hamkorlik va o'zaro bir-birlarini tushunishni mustahkamlashga xizmat qiladi. Qadim tarixiy ildizlarga ega bo'lgan O'zbekiston-Hindiston aloqalari bugungi kunda zamonaviy xalqaro hamkorlik talablariga mos keladigan mutlaqo yangi mazmun kasb etdi. Darvoqe, O'zbekiston kattaligi bo'yicha Osiyodagi ikkinchi davlat hisoblangan, jahonda o'z mavqeiga ega bo'lgan Hindiston bilan hamkorlikka alohida e'tibor qaratayotgan bir paytda bizning davlatimiz ham o'z navbatida Hindiston uchun geosiyosiy va iqtisodiy nuqtai nazardan ahamiyatlidir. Tomonlarning o'zaro hamkorlikdan manfaatdorligi, xalqaro munosabatlar masalalariga nisbatan qarashlar va yondashuvlarning mosligi O'zbekiston bilan Hindiston o'rtasida savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalar o'rnatish hamda ularni rivojlantirishga mustahkam zamin hozirladi.

O'zbekiston-Hindiston aloqalari bugungi kunda nafaqat mamlakatning tashqi faoliyati nuqtai nazaridan, balki mustaqil O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarini ilmiy anglash jihatidan ham alohida yuksak ahamiyat kasb etmoqda.

Xolislik nuqtai nazaridan shuni qayd etish kerakki, mustaqil milliy davlatchilikni rivojlantirish sharoitida sodir bo'layotgan jarayonlar ilmiy nuqtai nazardan har tomonlama yoritilishni taqozo etadi. Shu munosabat bilan mamlakatimiz olimlari oldida O'zbekiston Respublikasining butun ichki va tashqi faoliyatini ilmiy jihatdan chuqur tadqiq etish vazifasi turibdi. Bu fikr birinchi Prezident I.A. Karimovning 1998 yil 26 iyunida O'zbekiston tarix fanining yetakchi vakillari bilan uchrashuvda alohida ta'kidlangan edi. Ana shuni e'tiborga olib tashqi siyosat masalalarining, jumladan, xorijiy mamlakatlar bilan ikki tomonlama hamkorlik aloqalari tarixi va tadrijining tadqiq etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa O'zbekistonning yangi tarixini yaratishda Respublika tashqi siyosiy faoliyatiga oid masalalarni kengroq qamrab olishga yordam beradi.

O'zbekiston tashqi siyosatining tamoyillaridan biri xalqaro huquqning umumqabul qilingan me'yorlari asosida jahon hamjamiyati davlatlari bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama aloqalarni o'rnatish va ularni rivojlantirishni ko'zda tutadi. Ustuvor yo'nalishlardan biri esa Osiyo mintaqasi davlatlari bilan yaqin aloqa o'rnatish va har tomonlama hamkorlikni amalga oshirishga qaratilgan.

O'zbekiston tashqi siyosatining mazkur yo'nalishidagi rejalarining hayotga joriy etilishini Osiyoning eng yirik davlatlaridan biri – Hindiston bilan o'rnatilgan aloqalar misolida ko'rish mumkin. Bu esa sifat jihatidan yangi o'zbek-hind munosabatlari o'rnatilayotganligiga asosdir[1.70]

Butun suverenitet davri mobaynida Hindiston mustaqil davlat tuzishda dasturulamal bo'lgan tamoyillarga sodiq qolishga intildi. Milliy, diniy va kastalararo kelishuv, jahon bozoriga chiqish masalalarining hal etilishi va Pokiston bilan munosabatlarni normallashtirish jarayoni bu borada asosiy ahamiyatga ega bo'lgan va

hozir ham shunday bo‘lib qolmoqda. Ijtimoiy kelib chiqishi va diniy mansubligidan qat’iy nazar barcha hindlar uchun teng huquqlilikning ta’minlanishi masalasi hind xalqining buyuk shaxslari – Javaharlal Neru, Joy Prakash Narayana, Charan Singxa, Indira Gandi va Radjiv Gandilar faoliyatida asosiy o‘rinlardan birini egallagan.[2.73]

Hindiston iqtisodiyotida ham jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Mustaqillik davrida mamlakat dunyoning eng yirik davlatlari qatoriga qo‘shildi. Ichki yalpi mahsulot hajmiga ko‘ra (23 mlrd. AQSh dollari) Hindiston dunyoda o‘ninchi o‘rinni egallamoqda. Mamlakat tashqi savdo aylanmasining 40 % Yevropa Ittifoqi davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Hindistonning eng yirik iqtisodiy sheriklari AQSh, Rossiya, Xitoy va G‘arbiy Yevropaning rivojlangan davlatlaridir.

Shuni qayd etish kerakki, o‘zbek-hind hamkorligi O‘zbekiston to‘liq siyosiy mustaqillikka erishguncha ham huquqiy asoslangan edi.

Respublikamiz rahbariyatining barcha uchrashuvlari O‘zbekiston bilan Hindiston o‘rtasida iqtisodiy, savdo, ilmiy-texnik va madaniy hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirish bilan bog‘liq masalalar muhokamasiga bag‘ishlangan. Bo‘lib o‘tgan muzokaralar yakuniga ko‘ra ikki mamlakat o‘rtasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikning huquqiy asoslarini mustahkamlash uchun huquqiy asos bo‘lgan ikkita muhim hujjat imzolandi.

Ikki mamlakat tomonidan imzolangan ikkinchi hujjat “O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi bilan Hindiston Respublikasi o‘rtasida madaniyat, san’at, maorif, fan, sayyohlik, sport va ommaviy axborot sohalaridagi hamkorlik to‘g‘risidagi bitim” bo‘ldi.[3.27-29.]. Ushbu bitimda quyidagilar ko‘zda tutilgan: o‘zaro madaniy almashish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish; o‘zaro hamkorlikni rag‘batlantirish hamda har ikki mamlakat olimlari, ilmiy, madaniy, sport va ilmiy-tadqiqot muassasalari o‘rtasidagi aloqalarning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash[4.45].

Xalqaro munosabatlarning sifat jihatidan yangi bosqichida o‘zbek-hind munosabatlarini mustahkamlashga va kengaytirishga 1993 yilning mayida Hindiston Respublikasi Bosh vaziri Narasimxa Raoning O‘zbekistonga tashrifi jiddiy hissa qo‘shdi[5.112]. Ushbu tashrif davomida davlatlarning kelgusi hamkorligi uchun ulkan ahamiyatga ega bo‘lgan hujjatlar imzolandi. Jumladan, har ikki mamlakat xalqlari o‘rtasidagi do‘stlikni yanada mustahkamlashga alohida e’tibor bergani holda, shuningdek, ko‘p tomonlama va o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishga bo‘lgan intilishni ifodalab, O‘zbekiston bilan Hindiston o‘rtasidagi hamkorlik Osiyoda va butun dunyoda tinchlik va xalqaro xafvsizlikni mustahkamlashga xizmat qilishiga ishonch bildirgani holda “O‘zbekiston Respublikasi va Hindiston Respublikasi o‘rtasida davlatlararo munosabatlar va hamkorlik to‘g‘risida”gi shartnoma imzolandi.[6.61-63]

Ikki davlat rahbarining uchrashuvi davomida O‘zbekiston bilan Hindiston o‘rtasidagi savdo, iqtisodiy va texnik hamkorlikni yanada kengaytirishdan o‘zaro

manfaatdorlik bildirildi. Bundan kelib chiqqan holda, shuningdek, 1993 yilning 24 mayida Toshkentda imzolangan “O‘zbekiston Respublikasi bilan Hindiston Respublikasi o‘rtasidagi davlatlararo munosabatlar va hamkorlik to‘g‘risida”gi Shartnomaga [7.115-116] hamda boshqa hujjatlarga asoslangan holda O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A. Karimov va Hindiston Bosh vaziri Narasimxa Rao yangi hujjatlar turkumini imzolashdi. Shu jumladan: bitimlar – iqtisodiy hamkorlik tamoyillari va uning yanada kengaytirilishi to‘g‘risida; ilm-fan va texnika, madaniyat, pochta aloqasi, telekommunikatsiyalar sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida; qo‘shma O‘zbekiston-Hindiston bankini tashkil etish to‘g‘risida.

Imzolangan har bir bitim mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining aniq bir yo‘nalishida yaqin aloqalar o‘rnatish uchun mustahkam huquqiy asosni yaratadi. Masalan. “O‘zbekiston Respublikasi bilan Hindiston Respublikasi o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik tamoyillari to‘g‘risidagi bitim”da[8.115-116] quyidagilar ko‘zda tutilgan:

- tomonlar o‘z qonunlariga muvofiq savdo-sotiqni hamda iqtisodiy hamkorlikning boshqa formalarini uyg‘unlik bilan rivojlantirishni o‘z zimmlariga oladilar;
- ikkala davlatdagi amalda bo‘lgan qonunchilik doirasida korxonalar, tashkilotlar, jamiyatlar va muassasalar o‘rtasida ikki tomonlama iqtisodiy hamkorlikning rivojlanishiga ko‘maklashish;
- turli sohalarda, savdoda kadrlar tayyorlash, menejment, bank va sug‘urta ishida tegishli texnik yordam shakllarini rivojlantirib, iqtisodda hamkorlikni chuqurlashtirish;
- o‘zaro tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda, xalqaro savdoda va moliyaviy amaliyotda qabul qilingan prinsiplarga hamda ikki davlat qonunchiligiga amal qilish.[9.116-117]

Ma‘lumki, vaqt o‘tgani sayin hamda jamiyatda kechayotgan o‘zgarishlar barobarida yangi strategik rejalarni va mamlakatning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi masalalarini belgilash zarurati vujudga keladi. Agar respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining birinchi bosqichiga bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyatning qaror topishi xos bo‘lsa, ikkinchi bosqichi dunyoviy demokratik jamiyatni shakllantirish borasidagi muayyan yutuqlar, iqtisodiy rivojlanish sohasidagi o‘zgarishlar, mamlakat infratuzilmasining ko‘p tarmoqli iqtisodiyotini yaratish hamda import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan ajralib turadi. Respublika hayotidagi bunday ijobiy o‘zgarishlar bevosita mamlakatning tashqi siyosiy faoliyatiga ham ta‘sir ko‘rsatib, o‘z navbatida xorijiy davlatlar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik o‘rnatish uchun yangi huquqiy asosni shakllantirish bo‘yicha xatti-harakatlarning muvofiqlashtirilishini talab etadi.

Ana shu holatlarni e'tiborga olib, shuningdek, o'zbek-hind munosabatlarini yangi bosqichga ko'tarish maqsadida, ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarni yangi bosqichga ko'tarish, ularni yanada kengaytirish uchun huquqiy asoslar yaratildi.

Qabul qilingan hujjatlar orasida o'z ahamiyatiga ko'ra "O'zbekiston Respublikasi bilan Hindiston Respublikasi o'rtasidagi hamkorlikning tamoyillari to'g'risida"gi Deklaratsiya ajralib turadi.

O'zbekiston-Hindiston hamkorligining huquqiy asoslarini shakllantirish haqida so'z borar ekan, shuni qayd etish kerakki, mustaqillikka erishgan paytdan buyon respublikamizda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar jarayoni Hindiston davlat rahbarlari, siyosatchilari va jurnalistlarida katta qiziqish uyg'otmoqda. Bu esa shundan dalolat beradiki, Hindiston xalqi, o'zbek xalqi singari an'anaviy do'stlik munosabatlarini rivojlantirish hamda har ikki davlat o'rtasida ko'p tomonlama hamkorlikni amalga oshirishdan manfaatdordir.

Bu unga to'la huquqli davlat sifatida dunyo hamjamiyatiga uyg'unlik bilan kirib borish imkonini beradi. Bunda mamlakat tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilagan holda O'zbekiston teng huquqli asosda xorijiy davlatlar bilan o'zaro foydali hamkorlik o'rnatish boshladi. Ushbu jarayon o'zbek-hind munosabatlarining huquqiy asosi shakllanishida o'z ifodasini topdi, bu esa O'zbekiston bilan Hindiston o'rtasida keng ko'lamli iqtisodiy, ilmiy-texnik va madaniy hamkorlik uchun zarur shart-sharoitlarni yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Nuriddinov, E. Z. O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati: asoslari va ustuvor yunalishlari // O'zbekiston tarixi. – 2000. – № 4. – B. 27-29.
2. Mamatkulov, B. (2021, November). A New Interpretation of Industry in Uzbekistan During Independence. In " *ONLINE-CONFERENCES* " PLATFORM (pp. 158-161).
3. Mamatkulov, B. (2021). Conflicts of the process of the industrial staff training in the soviet period. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 507-510.
4. Mamatkulov, B. (2021, November). A New Interpretation of Industry in Uzbekistan During Independence. In " *ONLINE-CONFERENCES* " PLATFORM (pp. 158-161).
5. Sherozovich, M. B., & Shuhratovna, M. N. (2024). DEVELOPMENT OF FOOD INDUSTRIES IN THE SOUTHERN REGIONS OF UZBEKISTAN: HISTORICAL ANALYSIS AND CONSEQUENCES. *World scientific research journal*, 24(1), 188-194.
6. Boymanovna, A. R. (2024). HISTORICAL BASIS OF COOPERATION BETWEEN THE STATES OF UZBEKISTAN AND INDIA. *AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE*, 2(3), 62-67.
7. Асадова, Р. (2024). О 'zbekiston va Hindiston o 'rtasida savdo va ilmiy-texnik hamkorlik. *Общество и инновации*, 5(5), 227-231.
8. АСАДОВА, Р. (2024). ИСТОРИЧЕСКАЯ РЕТРОСПЕКТИВА ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ НАРОДАМИ УЗБЕКИСТАНА И ИНДИИ. *News of UzMU journal*, 1(1.2. 1), 7-10.

9. Baymanovna, A. R. (2024). Uzbekistan-India: Development of Economic Cooperation. *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education* (2994-9521), 2(5), 594-598.
10. Shonazarovich, Q. A., & Adilovna, B. G. (2024). OLTIN VOHA TEPALARI TILSIMI-TARIX KO 'ZGUSIDA: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, 6(2), 86-94.
11. Shonazarovich, K. A. (2023). Development of the Craft Industry in the City of Karshi at the Beginning of the 19th-20th Centuries. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 4(12), 135-138.
12. Shonazarovich, Q. A. (2024). IN 1925-1954, THE MEASURES FOR THE SPECIALIZATION OF UZBEKISTAN AS THE MAIN COTTON BASE OF THE USSR AND ITS CONSEQUENCES. *Web of Technology: Multidimensional Research Journal*, 2(5), 67-71.
13. Shaxnoza, E. (2024). QASHQADARYO VILOYATIDA IJTIMOIY-GUMANITAR FANINING RIVOJLANISHIDA XOTIN-QIZLARNING O'RNI. *Modern education and development*, 16(5), 216-226.
14. Elboyeva, S. B. (2022). МИЛЛАТЛАРАРО ҲАМЖИҲАТЛИК–ХАЛҚИМИЗ ТИНЧЛИГИ ВА ФАРОВОНЛИГИНИНГ МУҲИМ ОМИЛИДИР. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5-2), 377-385.
15. Elboyeva, S. B. (2022). YOSHLARDA YUKSAK MA'NAVIYATNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARBLIGI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 576-581.
16. Kuziyevich, E. U. (2024). GUZOR FORT IN THE PERIOD OF BUKHARA EMIRATE. *European Science Methodical Journal*, 2(5), 192-198.
17. Ergashev, U. K. (2024). SOCIO-POLITICAL PROCESSES IN GUZOR PROVINCE. *Web of Discoveries: Journal of Analysis and Inventions*, 2(5), 157-162.
18. Ergashev, U. K. (2024). THE BUKHARA EMIRATE: A HISTORICAL OVERVIEW. *Web of Technology: Multidimensional Research Journal*, 2(12), 131-135.
19. Nilufar, E. (2024). O'ZBEKISTON SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA KICHIK BEZNIS VA XUSUSIY TADBIRKORLIK MEKANIZMNING YARATILISHI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA). *Научный Импульс*, 3(26), 275-279.
20. Esanova, N. P. (2024). MAIN FACTORS OF TEXTILE INDUSTRY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN (1991-2021 Years). *Web of Technology: Multidimensional Research Journal*, 2(9), 5-13.
21. Esanova, N. (2024). O'ZBEKISTONDA SANOAT RIVOJLANISHI TARIXINING MUSTAQILLIK DAVRIDA O'RGANILISHI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 56(2), 19-22.
22. Ruzimuratovna, O. N. (2022). WAYS TO ABSORB THE NATIONAL IDEA IN THE YOUTH MIND. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(10), 122-124.
23. Ruzimuratovna, O. N. (2022). THE SIGNIFICANCE OF AESTHETICS IN PERSONAL EDUCATION. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(6), 10-14.
24. Ochilova, N. R., Elboeva, S. B., & Buriev, I. I. (2021). ISSUES OF FORMATION OF UNIVERSAL VALUES IN THE DEVELOPMENT OF NATIONAL CULTURAL CENTERS. *Scientific progress*, 2(2), 496-500.

24. Akbarovna, S. N. (2024). THE ESTABLISHMENT OF SCIENCE OLYMPIADS IN SECONDARY SCHOOLS: THE EFFECT OF REFORM AND ANALYSIS. *Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research*, 2(4), 33-35.
25. Sharapova, N. A. (2024). THE FACTORS OF ITS DEVELOPMENT AND INTRODUCING THE PROFESSION IN SECONDARY SCHOOLS. *European Science Methodical Journal*, 2(6), 68-72.
26. Akbarovna, S. N., Ugli, T. A. I., Mahbuba, A., Iskandar, I., Ugli, R. Q. S., Madina, K., ... & Ekpootu, M. U. Table of Content-Volume 3| No 4 (Apr 2023). *Development*, 6, 11.
27. Alimovna, E. Y., Alimovna, E. G., & Burievna, M. S. (2020). Historical Stages Of Innovative processes In Higher Education Of Uzbekistan. *Solid State Technology*, 63(6), 9824-9834.
28. Burievna, M. S. (2023). FROM THE HISTORY OF MUSIC CULTURE OF AMIR TIMUR AND THE TEMURIAN PERIOD. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 10(12).
29. Murtazova, S., & Ashurov, N. ABU MUIN AN-NASAFI-THE CONTINUATOR OF THE DOCTRINE OF MOTURUDIYA.
30. Jumayeva, S. S. (2024). MA'NAVIY TARBIYA JARAYONIDA ALLOMALAR MEROSINING TUTGAN O'RNI. *GOLDEN BRAIN*, 2(20), 64-69.
31. Жумаева, Ш. С. (2023). Ахборот хавфсизлиги ва мафкуравий ҳимоя. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(5 SPECIAL), 286-290..
32. Suyunovna, J. S. (2024). SOVETLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA O'ZBEKISTONDA MILLIY MAKTABLAR VA ULARNING FAOLIYATI. *Modern education and development*, 16(5), 239-249.
33. Akhmedova, D. S. (2023). SPIRITUAL IMAGE OF YOUNG PEOPLE WITH A MODERN WORLDVIEW. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(11), 304-309.
34. Sadullayevna, A. D. (2023). Young People-The Creators of New Uzbekistan. *The Peerian Journal*, 25, 11-16.
35. Sadullayevna, A. D. SPIRITUAL IMAGE OF YOUNG PEOPLE WITH A MODERN WORLDVIEW.